

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-6/1
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Lalmi tipik bo'z tuproqlar haydov qatlamida gumus 0,78-0,90% va azot miqdori 0,063-0,052%, qo'riq tuproqlarga nisbatan miqdori ancha kamligi aniqlandi. Gumus miqdori pastki qatlamlar tomon kamayib boradi, umumiy azot miqdori miqdorida ham shu qonuniyat takrorlandi.

Umumiy fosfor haydalma va haydalma osti qatlamlarda 0,137-0,098% va kaliy miqdori 0,099-1,084%, qo'riq tuproqlarga nisbatan kamligi aniqlandi.

Tuproqning unumdorligini belgilashda, qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishda uning umumiy fizikaviy xossalari katta ahamiyatga ega. Tuproqning fizik xossalarining yomonlashishi o'simliklarning suv, oziqa moddalari va havo bilan ta'minlanishida hamda tuproqqa ishlov berish jarayonlarini qiyinlashtiradi.

Lalmi tipik bo'z tuproqlar fizik xossalarining yaxshilanishi, asosan undagi mikroagregatlarning ko'pligi va tuproqdagi mikroorganizmlarning faolligi bilan bog'liq.

Qo'riq tipik bo'z tuproqning yuqori qatlamida zichlik 1,30-1,32 g/sm³, pastki qatlamlarga tomon zichlashib boradi 1,38-1,40 g/sm³. Janubiy qiyalikdagi lalmi tuproqning haydalma va haydalma osti qatlamida 1,28-1,32 g/sm³, pastki qatlamlarda esa 1,36-1,40 g/sm³ ni tashkil etgan.

Lalmi tipik bo'z tuproqlarning zichligi eroziyalanish darajasiga va agrotexnik tadbirlarning amalga oshirilishiga qarab o'zgarib turadi. Umumiy g'ovaklik qo'riq tipik bo'z tuproqlarda yuqori qatlamlarida 49,6-50,0 %, pastki qatlamlarida 47,1-47,7 % ni tashkil etdi. Umumiy g'ovaklik lalmi tuproqning haydalma va haydalma ostki qatlamida 49,4-51,1%, pastki qatlamlarida 47,5-48,8%ni tashkil etdi.

Qo'riq tuproqning yuqori qatlamida solishtirma og'irlik 2,60-2,62 g/sm³, lalmi tuproqning haydalma va haydalma ostki qatlamida 2,62-2,65 g/sm³ ni tashkil etdi.

Xulosa. Tadqiqotimizda lalmi tipik bo'z tuproqlarning mexanik takibi og'ir qumoqli ekanligi, qo'riq tuproqlar o'rta qumoqli ekanligi aniqlandi. Agrokimyoviy tahlillarda qo'riq tuproqlarning lalmi tuproqlarga nisbatan oziqa moddalari miqdori yuqori ekanligi aniqlandi. Tuproqlarning zichligi lalmi tuproqlarning yuqori qatlamida 1,28-1,32 g/sm³, qo'riq tuproqlarda biroz yuqori ekanligi 1,30-1,32 g/sm³ aniqlandi. Umumiy g'ovaklik bo'yicha qo'riq tuproqlarda 49,6-50,0%, lalmi tuproqlarda 49,4-51,1 % ekanligi aniqlanib, ishlov berish va mulchalash qo'llanilishi ta'sir qilganligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв // М. МГУ. 1970. - 197 с.
2. Гафурова Л.А. Почвы, сформированные на третичных красноцветных отложениях, их экологическое состояние и плодородие // Дисс. ... д.б.н. – Ташкент, 1995.
3. Горбунов Б.В. Почвы богарной зоны Узбекистана. Изд-во «УзФАН». Ташкент. 1960, 123 с.
4. Курвантаев Р. Состояние агрофизических свойств почв и пути их улучшения при интенсивной системе земледелия // Материалы IV съезда почвоведов и агрохимиков Узбекистана. 9-10 сентябрь, -Ташкент, 2005, -С. 61-74.
5. Ташкузиев М.М., Шадиева Н.И. Влияние природных и антропогенных факторов на свойства эродированных почв предгорий бассейна р. Санзар. // O'zbekiston tuproqlari va yer resurslari: ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 14-16 may 2008. –Toshkent, 2008. – B. 85-86.
6. Қўзиев Р.Қ, Сектименко В.Е. Почвы Узбекистана.-Ташкент, Exrtemum press, 2009. –с. 351-352.
7. Yusupov S. va boshq. Dukkakli ekinlarning agrotexnikasi. Samarqand, 2020.
8. GOST 26213-91. Тупрок – агрохимик тахлил методлари. Москва, 1992.

UO'T 634.11.

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA INTENSIV OLMAZORLARDA O'SISH VA HOSILDORLIKNING NAV-PAYVANDTAG KOMBINATSIYALARI HAMDA KO'CHAT QALINLIGIGA BOG'LIQLIGI

R.Yunusov, q/x.n., dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

F.A.Ganiyeva, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. So'nggi yillarda jahon va respublikamizda meva mahsulotlari sifatini keskin yaxshilash, ularning eksport salohiyatini barqaror oshirish va amaldagi intensiv olma bog'lar maydonini yanada rivojlantirish asosida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sohada faoliyat ko'rsatilayotgan olimlarimiz tomonidan O'zbekiston tuproq – iqlim sharoitiga mos keladigan, serhosil, sifatli yangi meva turlari introduksiya qilinib, ularni ilmiy asoslangan

tadqiqotlarda o'rganib ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv usul bilan rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida ikki barovarga oshirish, qishloq xo'jaligini yillik o'sishi kamida 5 foizga yetkazish belgilab berilgan.

Kalit so'zlar. *Meva mahsulotlari sifati, intensiv olma bog'lari maydoni, tuproq-iqlim sharoiti, nav-payvandtag kombinatsiyalari, ko'chat qalinligi, hosildorlik, meva sifati, samaradorlik.*

Аннотация. *За последние годы в мире и в нашей республике реализован ряд мероприятий, направленных на кардинальное улучшение качества плодовой продукции, устойчивое увеличение ее экспортного потенциала, дальнейшее развитие площадей существующих интенсивных яблоневых садов. Наши ученые, работающие в этой области, выводят новые, высокоурожайные, высококачественные сорта фруктов, подходящие для почвенно-климатических условий Узбекистана, изучают их в научно-обоснованных исследованиях и внедряют в производство. Новая Стратегия развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы ставит целью не менее чем удвоить доходы крестьян и фермеров за счет интенсивного научно обоснованного развития сельского хозяйства и довести ежегодные темпы роста сельского хозяйства не менее чем до 5 процентов.*

Ключевые слова. *Качество плодов, площадь интенсивных яблоневых садов, почвенно-климатические условия, сорто-подвойные комбинации, густота посадки, урожайность, качество плодов, эффективность.*

Abstract. *In recent years, a number of measures have been implemented in the world and in our republic aimed at radically improving the quality of fruit products, steadily increasing their export potential, and further developing the areas of existing intensive apple orchards. Our scientists working in this field develop new, high-yielding, high-quality fruit varieties suitable for the soil and climatic conditions of Uzbekistan, study them in scientifically based research and introduce them into production. The new Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026 aims to at least double the income of peasants and farmers through intensive scientifically based development of agriculture and bring the annual growth rate of agriculture to at least 5 percent.*

Key words: *Fruit quality, area of intensive apple orchards, soil and climatic conditions, variety-grafting combinations, planting density, yield, fruit quality, efficiency.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi PF -5388 son "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 20-martdagi PQ-4246-son "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 11-dekabrdagi PQ-4549-son "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid bir qator boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyani ishlab chiqarishga joriy qilinganida muayyan darajada xizmat qiladi, intensiv olma bog'laridan muttasil mo'l va sifatli hosil olish imkoniyati vujudga keladi [1].

Dunyoning ko'pgina turli mintaqa sharoitlarida, ya'ni intensiv mevachilikda olmani sanoat asosida yetishtirish hamda intensiv pakana olma bog'lari agrotexnikasi – nav-payvandtag kombinatsiyalari, ko'chat qalinligi, pakana olma bog'larning shox-shabbasiga mo'l va sifatli hosil beradigan shakl berish, kasallik va zararkunandalardan himoya qilish kabilar bo'yicha AQSH, Ispaniya, Xitoy, Irlandiya va boshqa davlatlar olimlar hamda tadqiqotchilari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan.

O'zbekistonda katta maydondlarda istiqbolli serunum intensiv mo'l va sifatli hosil beradigan mevali bog'lar oxirgi 8-10 yildan boshlab sekin va o'rta o'suvchi M-9 va MM-106 payvandtaglarda yuqori sur'atda bog'lar barpo qilinmoqda.

Intensiv mevachilik, ya'ni pakana olma va nok bog'larida meva yetishtirish miqdorini keskin oshirish, sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish darajasini tubdan o'zgartirish rejalashtirilgan. Ayni

paytda respublikamizda intensiv mevalilik bilan shug'ullanadigan olimlar va mutaxassislar oldida mazkur sohaning iqtisodiyotini tubdan o'zgarish mo'ljallangan va mevalilik sohasida nav-payvandtag kombinatsiyalari, ko'chat qalinligi, pakana bog'lar maydonini kengaytirish va ishlab chiqarish miqdorini keskin oshirish ko'zda tutilgan [2,6].

Shu sababli intensiv bog'larni barpo qilish, ularni parvarishlash texnologiyalari va payvandtaglarni tiplari deyarli o'rganilmagan edi. Shuni qayd etish lozimki, intensiv olma bog'larda nav-payvandtag kombinatsiyalari deyarli ilmiy asosda o'rganilmagan. Tadqiqotlarda olma daraxtlarida yillar bo'yicha o'zgarishi, fotosintez mahsuldorligi, suv va oziqlanish rejimi, yorug'lik ko'rsatkichlari va biologik hamda xo'jalik mahsuldorligi chuqur ilmiy asosda o'rganilmagan. Intensiv bog'larda mevali kuchatlarni o'tkazish tartiblari va nav-payvandtaglar bog'liqligi kam o'rganilgan [3,4,5].

Tadqiqot ob'ekti: Buxoro viloyatining sug'oriladigan o'tloqi – allyuvial tuproqlari, Buxoro tumani MChJ “Siyovush Agro” fermer xo'jaligi tuproqlari agrotasnifi, olmaning Goldspur va Gala navi, nav-payvandtaglar kombinatsiyalari.

Tadqiqot predmeti. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida intensiv olma navlarida turli ko'chat qalinligi va nav-payvandtaglar kombinatsiyalarini o'rganish, maqbul ko'chat qalinligi, mos keladigan nav-payvandtaglarni tanlash, kesish usullari, hosildorligi, meva sifatini yaxshilash, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida intensiv tipdagi olma bog'larini yaratish uchun sekin o'suvchi M-9 payvandtagdan foydalanish va parvarishlash texnologiyasining muhim elementlaridan biri bo'lgan ko'chat qalinligi va hosildorligini ishlab chiqarishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Olmani kuchsiz va sekin o'suvchi M-9 payvandtagini vegetativ yo'l bilan ko'paya olish xususiyatini o'rganish;

Olmaning yer ustki va ildiz tizimi rivojlanishini payvandtag va ko'chat qalinligiga, shox-shabba shakliga korrelyatsion bog'liqligini aniqlash;

Shakl berish va payvandtag turi, shox-shabba shakli va bog'larda o'simliklarning turli ko'chat qalinligi qo'llanilganda olma daraxtlari shox-shabbasiga yorug'lik tushish darajasini aniqlash;

Shakl berish, payvandtag, ko'chat qalinligi hamda olmaning hosildorligi, mevasining sifatiga va iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

Tadqiqotning ob'yekti sifatida sekin o'suvchi M-9 payvandtagiga ulangan tumanlashtirilgan Goldspur va Gala olma navlari, intensiv bog'larda daraxtlarni turli utkazish tartiblaridan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib olmaning Goldspur va Gala navlari sekin o'suvchi M-9 payvandtagining o'sish kuchiga bog'liq ravishda shox-shabba va ildiz tizimining rivojlanishi, intensiv bog'lar uchun olma ko'chatlarini ekish tartiblari, olma daraxtlari shox-shabbasini kesish va parvarishlash usullari xizmat qildi.

Tadqiqotning uslublari: Dala va laboratoriya tajribalari quyidagi uslublardan foydalanilgan holda o'tkazilgan: “Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi” X.Ch.Buriev, N.SH.Enileyev va boshqalar (2014); A.A.Nichiporovich «Teoriya fotosinteticheskoy produktivnosti rasteniy» 1961 . // Fiziologiya rasteniy (1977); B.A.Dospexov Metodika polevogo opyta (1985). Tajriba ma'lumotlarining statistik taxlili B.A.Dospexov (1985) tavsiya etgan uslub bo'yicha “Excel” va “Statistica 7.0 for Windows” kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirilgan.

Tadqiqot o'tkazish joyining tuproq-iqlim sharoitlari.

Ishlab chiqilgan dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqotlar Buxoro davlat universiteti va Buxoro tumanidagi fermer xo'jaligida 2021-2023 yillarda olib borildi.

Dala tajribalari olib borilgan viloyat O'zbekistonning janubiy-g'arbiy qismida 40°10' sh.k. va 63°40' j.u. da joylashgan. Buxoro viloyatining umumiy maydoni 40220 km² ni tashkil etadi. Tajriba o'tkazilgan maydon uchun sug'orish suvlari Amu-buxoro kanalidan ta'minlangan.

Tajriba maydonining tuprog'i o'rtacha darajada minerallasgan: Cl – 0,04%, SO₄ – 0,071%. Sizot suvlari sathi 2,5-3, 0 metr chuqurlikda joylashgan.

Tajriba o'tkazilgan joy iqlimi. Har qanday muayyan yilning o'simliklarning vegetatsiya va qishlov davrida ko'pgina omillarga bog'liq, bu omillar intensiv pakana olma daraxtlarni ishlab

chiqarishdagi samaradorligi aniqlanadi. Intensiv pakana serunum navlarni parvarishlash va muttasil mo'l va sifatli hosil olishlarida meteorologik sharoitlardan asosiy o'rinda havo harorati va yog'ingarchilikning miqdori belgilanadi.

O'rganilgan fermer xo'jaligi yerida quyosh yorug'ligining davomiyligi yiliga o'rtacha 2889 soatni tashkil etadi. Yozgi vaqtlarda u bir oyda 361-395 soatga yetadi, hatto qishda ham u 104-125 soatga teng bo'ladi. Ushbu mintaqa iqlimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri keskin kontinentallikdir, u harorat, havoning nisbiy namligi, yog'ingarchilik miqdori va boshqa meteorologik elementlarning ham yillik, ham bir kecha-kunduzlik doirada emas. Iqlim rayoni uchun kech bahorgi ayozlarning boshlanish sanasi – 20-26-mart, kuzgi ayozlarning boshlanishi sanasi 10-oktyabr – 6-noyabr. O'rtacha kunlik harorati 10⁰S dan yuqori bo'ladi.

Asosiy va oxirgi baholashni o'tkazilgan tajribalar asosida shuni qayd etish lozimki, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlaganda qayd etish mumkin bo'ladi.

Pakana intensiv olma bog'larida meva yetishtirishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilarda o'z aksini topgan:

1 gektardagi to'liq mahsulotlarning narxi, bir tsentner mevaning o'rtacha tan narxi, 1 gektardan olingan sof foyda va rentabellik darajasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan meva miqdori qilingan xarajatlarni to'liq yopib, sof foyda olishga asos soladi. Ko'chat qalinligi oshishi bilan xarajatlarni ham oshishiga olib kelgan.

1-jadval

Pakana intensiv olma daraxtlarini nav-payvandtag kombinatsiyasi va ko'chat qalinligidan hosildorligining bog'liqligi

Ko'chat qalinligi, m	Olmaning Goldspur navi		Olmaning Gala navi	
	Bir daraxtdan, kg	1ga uchun, ts	Bir daraxtdan, kg	1ga uchun, ts
	2021yil			
4.0x1.0	6,5	162,5	6.1	152.5
4.0x1.2	8,8	183,3	8.1	168.7
4.0x1.4	10,4	185,7	9.6	171.4
4.0x1.6	11,9	185,8	11.0	171.8
4.0x1.8	13,4	186,1	12.5	173.6
4.0x2.0	15,5	193,7	14.1	176.2
4.0x2.2	16,1	182,8	15.3	173.8
NSR,05				
R,%				
	2022 yil			
4.0x1.0	8.1	202.5	7.5	187.5
4.0x1.2	9.7	202.0	9.2	191.6
4.0x1.4	11.4	203.6	11.2	200.0
4.0x1.6	13.1	204.6	12.9	201.4
4.0x1.8	14.8	205.5	14.6	202.7
4.0x2.0	16.8	210.0	16.4	205.0
4.0x2.2	17.3	196.5	17.1	194.2
NSR,05				
R,%				
	2023yil			
4.0x1.0	9.8	245.0	9.2	230.0
4.0x1.2	11.6	245.7	11.3	235.3
4.0x1.4	13.8	246.4	13.3	237.5
4.0x1.6	15.9	248.3	15.4	240.5
4.0x1.8	18.0	250.0	17.5	243.0
4.0x2.0	20.5	256.6	19.6	245.0
4.0x2.2	21.8	247.6	21.1	239.6
NSR,05				
P,%				

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan shu ma'lum bo'ldiki, pakana intensiv olma daraxtlarida mevali bog'da ko'chat qalinligini oshirganda bir daraxtdan sezilarli darajada pasayadi, lekin bu ko'rsatkichlarni 1ga hisobida keltirilganda holatda ham to muayyan ko'chat qalinligiga oshadi. Shuni qayd etish lozimki, MChJ «Siyovush Agro» bog'dorchilik fermer xo'jaligida mevali

daraxtlarni pakana olma navida 1136 dona 2500 dona olma daraxti bir gektarga joylashgan taqdirda mevali bog'larda olingan hosildorlik kamayadi.

Buxoro tuman hududida joylashgan MChJ "Siyovush Agro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida bir gektardagi pakana olma bog'ida ko'chat miqdorini 1136 donadan 2500 donagacha oshishi natijasida olingan hosildorlikni ko'payishi ham qayd etilgan. Natijada 1ts olma yetishtirish uchun qilingan xarajatlar miqdori ham keskin kamayadi, bir gektardan olingan sof foyda miqdori oshib, rentabellik darajasini ko'payishiga sabab bo'ladi. Bir gektar pakana olma bog'larida ko'schat o'tqazish maydonini kamayishi ayrim qo'shimcha agrotexnik tadbirlar, jumladan, daraxtlarga shakl berish va kesish hamda qo'shimcha olingan hosildorlik bilan bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, pakana olma bog'larining qalin joylashganligi mevali daraxtlarning pastki qismidagi ochiq joylar daraxt tanasida bo'lishi, qo'shimcha kesish jarayonlarini o'tkazishga majbur qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh. PF-5388-son. "O'zbekiston respublikasida meva –sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Prezident farmoni. T., 2018y.29-mart.
2. Pirs S. Polevie opyty s plodovimi derevyami. – Moskva, Kolos, 1969. – S. 148-160.
3. Kudryavets R.P. Svetovoy rejim i fotosintez yabloni v zavisimosti ot formi krony. // Doklady TSXA. – M., 1972. – Vypusk 179. – S. 5-10.
4. Ovsyannikov A.S. Vliyaniye sxemy posadki i ogranicheniye vysoty krony na fotosinteticheskuyu deyatel'nost' i uroжайnost' yabloni. // Tekhnologiya intensivnogo sadovodstva v razlichnix geograficheskix zonax strani: Sbornik nauchnix rabot / VNIIS im. I.V. Michurina. – Michurinsk, 1980. – Vypusk 30. – S. 65-70.
5. Agafonov N.V., Bulichev A.P., Sizov V.N. Obosnovaniye optimal'noy plotnosti nasajdeniya plodovix derev'ev // Izv. TSXA, 1982. – Vyp.5. – S.117–124
6. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari, T., 2007, S.148.

УДК: 631.559.2

УРОЖАЙНОСТЬ ЗЕРНОВЫХ КУЛЬТУР КРАСНОДАРСКОЙ СЕЛЕКЦИИ НА ОРОШАЕМЫХ ПОЧВАХ БУХАРСКОГО ОАЗИСА

М.И. Ахмедов, к.с.х.н., доц., Бухарской научно-опытной станции научно-исследовательского института зерновых и зернобобовых культур, Ташкент
О.Б. Шарипов, PhD, доц., Бухарский государственный университет, Бухара

Annotatsiya. Buxoro viloyati sug'oriladigan turli darajalarda sho'rlangan tuproqlari sharoitida Krasnodar seleksiyasiga mansub 2 ta tritikale, 1 ta qattiq bug'doy va 14 ta yumshoq bug'doy navlarida dala va laboratoriya tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Tajriba dalasida barcha agrotexnik tadbirlar (ekish muddat va me'yorlari, sug'orish, oziqlantirish) bir xilda amalga oshirilib unda o'simliklarning hosildorligi, bo'yi, kasalliklar, yotib qolishga, qurg'oqchilikka chidamliligi baholangan va biokimyoviy tahlillar amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Voha, sug'oriladigan tuproqlar, sho'rlanish, gumus, mineral, fizik loy, qurg'oqchil hudud, kleykovina deformatsiya o'lchagichi, fenologiya, ekish muddati, donli ekinlar naturasi, kleykovina, hosildorlik.

Аннотация. Проведены полевые и лабораторные исследования на 2 сортах тритикале, 1 твердой и 14 сортах мягкой пшеницы, принадлежащих к Краснодарской селекции, в условиях орошаемых почв разной степени засоления Бухарской области. На опытном поле все агротехнические мероприятия (сроки и нормы посева, полив, подкормка) проводились аналогично, оценивалась продуктивность, высота, заболеваемость, устойчивость растений к полеганию и засухе, проводились биохимические анализы.

Ключевые слова: Оазис, орошаемые почвы, засоление, гумус, минерал, физическая глина, засушливый регион, измеритель деформации клейковины, фенология, сроки посева, натура зерновых культур, клейковина, продуктивность.

Abstract. Field and laboratory studies were conducted on 2 varieties of tritikale, 1 durum and 14 varieties of soft wheat belonging to the Krasnodar selection, in the conditions of irrigated soils of varying degrees of salinity in the Bukhara region. In the experimental field, all agrotechnical measures (sowing dates and rates, irrigation, fertilizing) were carried out similarly, productivity,